



UDK 930:314.7

ORCID ID: 0009-0002-2841-2536

ANDIJON OBLASTIDA AHOLI KO‘CHIRILISHI (MIGRATSIYA)
JARAYONLARI (1965–1975-YILLAR)

<https://doi.org/10.70728/a.series.v08.i02.094>

Abbasov Behzod Baxtiyorovich

Namangan davlat universiteti dotsenti, PhD

E-mail: hitman_7707@mail.ru

Tel: +998935611062

Annotatsiya. Mazkur maqolada 1965–1975-yillarda Andijon oblastida aholi ko‘chirilishi (migratsiya) jarayonlari tarixiy-demografik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda hududda yuz bergan ichki va tashqi migratsiya yo‘nalishlari, ularning ijtimoiy-iqtisodiy omillari hamda urbanizatsiya jarayoni bilan o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan. Statistik ma’lumotlar va arxiv manbalari asosida migratsiya dinamikasi baholanib, uning viloyat demografik tarkibiga ta’siri ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: migratsiya, Andijon oblasti, urbanizatsiya, ichki ko‘chish, demografik jarayonlar, mehnat resurslari, 1965–1975-yillar.

Аннотация. В статье анализируются процессы миграции населения в Андижанской области в 1965–1975 годах с историко-демографической точки зрения. Освещаются направления внутренней и внешней миграции, их социально-экономические факторы и взаимосвязь с урбанизацией. На основе статистических данных и архивных источников дана оценка динамики миграции и её влияния на демографическую структуру региона.

Ключевые слова: миграция, Андижанская область, урбанизация, внутреннее переселение, демографические процессы, трудовые ресурсы, 1965–1975 годы.

Abstract. This article analyzes population migration processes in Andijan region during 1965–1975 from a historical and demographic perspective. The study examines internal and external migration flows, their socio-economic determinants, and their relationship with urbanization. Based on statistical data and archival sources, the dynamics of migration and its impact on the demographic structure of the region are evaluated.

Keywords: migration: Andijan region, urbanization, internal resettlement, demographic processes, labor resources, 1965–1975.

Kirish. O‘zbekiston SSRda Ikkinchi jahon urushidan keyin qishloq xo‘jaligini rivojlantirish masalasi asosan, ekstensiv xarakter kasb etgan. Lekin, shunga qaramasdan, SSR va respublika rahbariyatlarining ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida birinchi o‘rinda cho‘l zonalarida yangi yerlarni o‘zlashtirish, keng ko‘lamli irrigatsiya va melioratsiya ishlarini olib boorish hamda yangi tashkil qilingan kolxoz va xovxozlarga aholini ko‘chirish muhim ahamyatga ega bo‘lgan. Shu bilan birga, yangi tashkil qilingan xo‘jaliklarning faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ularning iqtisodiy rivojlanishi va mehnat samaradorligini oshirish masalasi muhim ahamyat kasb etgan. XX asrning 60-70-yillari O‘zbekiston SSR hududida, xususan Andijon oblastida demografik jarayonlarning jadallashuvi bilan xarakterlanadi. Mazkur davrda sanoatlashtirish, irrigatsiya tizimlarining kengaytirilishi, yangi ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi hamda qishloq xo‘jaligini ixtisoslashtirish siyosati aholining ichki va tashqi migratsiya harakatlarini kuchaytirdi. Shu bilan birga, Farg‘ona vodiysida ham yangi yerlarni o‘zlashtirish va irrigatsiya-melioratsiya ishlarini olib boorish vazifasi ittifoq va respublika rahbariyati tomonidan ham rejalashtirilgan edi. Shu maqsadda, Markaziy Farg‘ona yerlariga vodiyning Andijon, Namangan, va Farg‘ona oblastlaridan aholini ko‘chirish hamda yangi yerlarni o‘zlashtirish ishbu mintaqaning agrar sohasini rivojlantirishda kata ahamyatga ega bo‘ldi.

Andijon oblasti respublikaning eng zich aholi yashaydigan hududlaridan biri bo‘lib, tabiiy o‘sish ko‘rsatkichlarining yuqoriligi va yer resurslarining cheklanganligi migratsiya jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Ko‘chirilgan aholi asosan, Andijon oblastining zich joylashgan Andijon, Oltinko‘l va Leninsk (hozirgi Asaka) rayonlaridagi kolxozlarga to‘g‘ri kelgan. Ushbu rayonlardagi kolxozchilarning daromadi yuqori, shuningdek, ularning shaxsiy uylari, tomorqasi, bog‘I va qoramoli ham bo‘lgan.

1965-1975-yillar oralig‘ida hududda yangi o‘zlashtirilgan hududlarga ichki ko‘chirish, sanoat markazlariga jalb qilish hamda boshqa viloyatlarga rejalashtirilgan ko‘chirish siyosati olib borilgan [2, 87-b.].

Adabiyotlar tahlili va metodlari: tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil va statistik metodlardan foydalanildi. 1965-yildan boshlab Andijon oblastida sanoat tarmoqlarini rivojlantirish siyosati kuchaydi. Neftni qayta ishlash, to‘qimachilik va mashinasozlik korxonalarining kengaytirilishi ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyojni oshirdi. Bu esa ichki migratsiyani kuchaytirdi.

Viloyat markazi va sanoatlashgan shaharlarga qishloq hududlaridan aholi oqimi sezilarli darajada ko‘paydi. Ayrim yillarda shahar aholisi sonining o‘sishi tabiiy o‘sishtan ko‘ra migratsiya hisobiga tezroq kechgan [4, 132-b.].

Shu bilan birga, aholining bir qismi boshqa viloyatlarga, jumladan, yangi o‘zlashtirilayotgan hududlarga ko‘chirilgan. Bu jarayon ko‘pincha mehnat resurslarini hududlar bo‘yicha muvozanatlashtirish siyosati bilan bog‘liq bo‘lgan [5, 41-b.].

1960-yillarning ikkinchi yarmida Andijon oblastida yer maydonlarining yetishmasligi va aholi zichligining ortishi natijasida rejalashtirilgan ko‘chirish siyosati amalga oshirilgan. Ko‘chirish jarayoni oblast va rayon gazetalarida keng yoritib borilgan, shuningdek, ushbu maqsadda radio eshittiruvlardan ham foydalanilgan. Shuningdek ko‘chib brogan kolxozchilar o‘z qishloqlarida qolgan qarindoshlarini yangi tashkil qilingan kolxozlarga taklif qilib, ularga o‘zlari uchun yaratilgan sharoit va imtiyozlar haqida so‘zlab berish va ularni ko‘chirishga ko‘ndirish usullari ham qo‘llanilgan.

Ayniqsa, yosh oilalar va mehnatga layoqatli aholi qatlamini boshqa hududlarga yo‘naltirish choralari ko‘rilgan [3, 145-b.].

1965–1975-yillarda migratsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy omillari quyidagilar edi:

1. Sanoatlashtirish siyosati
2. Qishloq xo‘jaligida yer tanqisligi
3. Mehnat resurslarini qayta taqsimlash
4. Uy-joy ta‘minoti bilan bog‘liq masalalar
5. Ta‘lim va kasb-hunar olish imkoniyatlari

Andijon oblastida aholi sonining tez sur‘atlarda ortishi natijasida ish o‘rinlari yetishmasligi yuzaga kelgan. Bu esa ichki migratsiyani kuchaytirgan asosiy sabab sifatida namoyon bo‘ladi [6, 98-b.].

Shuningdek, davlat tomonidan amalga oshirilgan rejalashtirilgan ko‘chirish siyosati ham migratsiya jarayonlarining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan. 1970-1975-yillarda Andijon oblastida migratsiya dinamikasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, 1970-yillarning birinchi yarmida Andijon oblastida migratsiya jarayonlari yanada murakkablashdi. Bu davrda urbanizatsiya jarayoni tezlashdi hamda sanoat ishlab chiqarishining kengayishi bilan bog‘liq ravishda shahar aholisi ulushi ortdi. Statistika ma‘lumotlariga ko‘ra, ayrim yillarda shahar aholisi o‘shishining muhim qismi migratsiya hisobiga ta‘minlangan [7, 56-b.].

Mazkur davrda migratsiya ikki asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ldi:

1. Qishloqdan shaharga ichki migratsiya;
2. Viloyatdan tashqariga rejalashtirilgan ko‘chirish.

Qishloqdan shaharga ko‘chirish, Andijon oblastida aholi zichligi yuqori bo‘lib, yer resurslari cheklangan edi. Qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligini oshirish siyosati natijasida ortiqcha mehnat resurslari yuzaga kelgan. Bu esa qishloq aholisining shaharlarga oqimini kuchaytirgan [8, 103-b.].

1970–1975-yillarda:

- sanoat korxonalarini soni oshgan;
- xizmat ko‘rsatish sohasida yangi ish o‘rinlari yaratilgan;
- kasb-hunar ta‘limi muassasalari kengaygan. Natijada yoshlar orasida migratsiya faolligi yuqori bo‘lgan.

Viloyatdan tashqariga ko‘chirish, mazkur davrda respublika miqyosida mehnat resurslarini hududlar bo‘yicha muvozanatlashtirish siyosati olib borildi. Aholi zich

hududlardan kam o‘zlashtirilgan yerlarga ko‘chirish amaliyoti qo‘llanilgan [3, 152-b.]. Andijon oblastidan ayrim oilalar yangi o‘zlashtirilayotgan hududlarga ko‘chirilgan. Bu jarayon ko‘pincha:

- uy-joy bilan ta‘minlash,
- ish o‘rni yaratish,
- moddiy rag‘batlantirish choralari bilan birga amalga oshirilgan.

Migratsiyaning demografik tarkibi, 1965-1975-yillardagi migratsiya asosan mehnatga layoqatli yosh aholi hisobiga yuz bergan. 18–35 yosh oralig‘idagi shaxslar migratsiyada faol qatnashgan qatlam bo‘lgan [5, 63-b.].

Gender tarkibida erkaklar ulushi dastlab yuqori bo‘lgan bo‘lsa, 1970-yillarga kelib ayollar migratsiyasi ham oshgan. Bu, ayniqsa, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohasidagi ish o‘rinlarining kengayishi bilan izohlanadi.

Urbanizatsiya jarayoni va migratsiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. 1965-1975-yillarda Andijon oblastida shahar aholisi ulushi izchil o‘sib borgan. Bu esa:

- ijtimoiy infratuzilmaning kengayishiga,
- uy-joy qurilishining ortishiga,
- transport va aloqa tizimining rivojlanishiga

olib kelgan [9, 88-b.].

Shu bilan birga, tezkor urbanizatsiya ayrim muammolarni ham yuzaga keltirgan:

- uy-joy tanqisligi;
- infratuzilma yuklamasining ortishi;
- vaqtinchalik yashash sharoitlari.

Migratsiyaning ijtimoiy oqibatlari, migratsiya jarayonlari Andijon oblastining ijtimoiy-demografik tarkibiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan.

Ijobiy jihatlariga to‘xtalsak:

- mehnat resurslarining samarali taqsimlanishi;
- sanoat rivojlanishining jadallashuvi;
- shahar madaniyatining kengayishi.

Salbiy jihatlar:

- qishloq hududlarida mehnat resurslarining kamayishi;
- oilaviy ajralish holatlarining ko‘payishi;
- ijtimoiy moslashuv muammolari.

Xulosa. 1965-1975-yillarda Andijon oblastida migratsiya jarayonlari demografik o‘shish, sanoatlashtirish va hududiy siyosat bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlangan. Migratsiya nafaqat aholi soni va tarkibiga, balki viloyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan.

Mazkur davr migratsiyasi rejalashtirilgan va davlat tomonidan boshqarilgan jarayon sifatida namoyon bo‘lib, u mehnat resurslarini hududlar bo‘yicha qayta taqsimlash mexanizmining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston SSR statistik ma’lumotlar to‘plami. – Toshkent, 1976.
2. O‘zbekiston SSR Davlat statistika qo‘mitasi hisobotlari. – Toshkent, 1968.
3. Arxiv hujjatlari to‘plami. – O‘zMA. 2347-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 30-ish, 168-varaq.
4. Demografik jarayonlar va urbanizatsiya masalalari. – Toshkent, 1974.
5. Aholi migratsiyasi masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar to‘plami. – Toshkent, 1980.
6. O‘zbekiston hududlarida mehnat resurslari taqsimoti. – Toshkent, 1972.
7. Andijon oblasti iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari. – Andijon, 1975.
8. Sanoatlashtirish va demografik o‘zgarishlar. – Toshkent, 1973.
9. Urbanizatsiya jarayonlari va ijtimoiy infratuzilma. – Toshkent, 1977.